INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 2, 2024

e ISSN : 3030-332X IMPACT FACTOR (Research bib) – 7,293

„KECHA VA KUNDUZ'' ROMANIDAGI ZEBI OBRAZI

Maxmudova Munisa

O'zDJTU XT2-fakulteti

Anostatsiya:„Kecha va kunduz''romanidagi Zebi obrazining romandagi o'rni,bu harakterning ochib berilishi.

Kalit so'zlar: Adib,zebi,Qambarali.

„Kecha va kunduz'' romani o'zbek adabiyotida ilk roman-diologiya hisoblanadi.Bu asar Oqposhsho davridagi o'zbeklar hayotini,mansabda o'tirgan insonlarning yuzini ayovsiz tarzda ochib berganligi va insonlarni ilm-marifatga chorlab,ilmsizlikning oqibatlarni ko'rsatib berganligi bilan qimmatlidir.

Asardagi Zebi obrazi sodda,oqko'ngil qiz sifatida gavdalantiriladi. Bir qarashda biz bu obrazni asosiy qahramon sifatida ko'ramiz,lekin u asardagi hech qanday voqealarni o'zgartirmaganligi va hayotidagi adolatsizliklarga hech qanday qarshiliklar qilmay shunchaki hayot oqimida suzganligi sababli bosh qahramon deb ayta olmaymiz.Adib bu obraz orqali o'sha davrdagi o'zbek qizlarining achinarli hayotini ko'rsatib beradi.

Asar tabiatning yangidan uyg'onganligi va tabiatdagi go'zal o'zgarishlar tasviri bilan boshlanadi.Bu bahor Zebidir,Zebi kabi yosh,sof,beg'ubordir.Asarda Zebining qalbini,,Qish ichi zanglab chiqqan''deydi va biz buning sababini qishda tinmay kelgan sovchilar yoki ayolni inson sifatida ko'rmaydigan otasi deb bilishmiz mumkin.Zebining onasi Qurbonbibi „qizining soadatidan boshqa narsani bilmaydigan onalardan edi''.Otasi Razzoq so'fi harom va halolni ko'p ham ajratmaydigan ham hamshahrining ta'rifi bilan aytganda „ko'rgazmaga qo'yiladigan antiqa maxluqlardan ''.Zebining dugonasi Salti uni olib ketish uchun kelganda, Razzoq so'fining roziligini olish uchun yo pir,yoki boy xonadonnikiga borish kerakligi Razzoq so'fining boylikka o'ch ekanligini bildiradi va bu yo'lda o'zining qizini ham ayamaganligi buning yorqin isbotidir.Zebi o'zining yaxshi ko'rgan insoni bo'laturib ham qistovlar bilan otasidan ham katta insonga 3-ayol bo'lib turmushga chiqadi.Bu o'sha davrning fojiasi deb ayta olishimiz mumkin:mingboshi bo'la turib qizi tengi qizni xotin qilib olishi va bunga hech kim qarshilik qilmasligi, eshon-pirlardanmiz deb diniy bilimi yetishmay turib boylik uchun benamoz insonga qizingni ber deb qistashlari shular jumlasidandir.Zebi esa shunchaki taqdir deb jimgina hayot oqimida suzaveradigan bir ojizadir.Kundoshlarining ko'rolmasligi sababli Zebi fitnaga uchrab o'z erini,mingboshini, zaharlab o'ldirdi degan tuxmatga qoladi.

Aynan ana shu voqealar tizimida nafaqat Zebining balki o'sha davr sart qizlarining eng katta kamchiliklari ko'rsatib beriladi.Zebining suddagi ''Men o'ldirganim yo'q…Bu aniq…Meni qo'yib yuboradilar…''kabi o'ta darajada sodda o'ylashi.Sudda hukm o'qilmoqchi bo'layotganda „Endi uyimni qandoq qilib topib boraman?''kabi kalta fikrlaydi.Sud jarayonida uning paranjisini yechib qo'yishini aytganda u nomahramlardan uyalib yechmaganligi uning iffati kuchli o'zbek qizi ekanligi bir muncha faxrlantiradi.

Mingboshining o'limi bu mansabdorlar uchun hech qanday ahamiyatga ega emas aslida.Bu shunchaki tepadagilar uchun yaxshi ko'rinish,siyosat orqali ko'zga ko'rinish va oqposhsho odamlarining hayotiga tahdid solganlarning ahvoli qanday bo'lishini ko'z-ko'z qilishdan boshqa narsa emas.Mingboshining ular oldida qadrsiz ekanligini uning ismini bir joyda „Akbarali'',yana

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 2, 2024

e ISSN : 3030-332X IMPACT FACTOR (Research bib) – 7,293

bir joyda ,,Umarali'' yoki ,,Qambarvali'' deb yozilishidan bilishimiz mumkin va o'rtada yosh,go'l Zebiniso o'zi bilmagan holda siyosat qurboniga aylanadi.

Menimcha,Zebunisoni hech bo'lmasa 18 yoshdan keyin hayotga tayyor bo'lganda turmushga bersa u kundoshlarining fitnasiga uchramas yokida hech bo'lmasa sudda o'zini oqlab bera olardi.Otasi o'zidan ham katta insonga uni berayotganda bunday turmushga qarshilik qila olganda ,o'zining yaxshi ko'rgan insoni,O'lmasi,bor ekanligini aytsa,kambag'al bo'lsa ham baxtli yashaydi deb o'ylayman.Adib bu asar bilan qizlarni uyg'onishga,o'z hayotini go'zal qilib yashash mumkinligiga chaqirgan bo'lsa ajab emas.

,,Kecha va Kunduz'' roman diologiyasining ikkinchi qismida Zebinisoning hayoti mutlaqo o'zgarib ketsa kerak .Uning surgunlik davrlarida u ruslarning hayotini,rus ayollarining yashash tarzini ozmi-ko'pmi ko'rib-eshitib uning dunyoqarashi,fikrlashi mutlaqo o'zgarib ketishi va surgunlikdan keyin qaytib sartlarning hayotini o'zgartirish uchun kurashsa kerak deb o'ylayman.Hozirgi kunda ilgari surilayotgan ,,O'qimishli ona butun millatning tayanchidir'' degan g'oyaning o'sha davrdagi tajribasi Zebiniso orqali amalga oshgan bo'lsa ajab emas.Cho'lponning o'sha davrdagi yangi hayotni barbo qilishni avvalo onalardan boshlash kerak degan g'oyasi bugungi kunda o'z aksini topayotgani Cho'lponning chindan ham dunyoqarashi keng inson ekanligi ,millatni,millatni tarbiyalaydigan insonlarning o'qimishli holda ko'rish istagi kuchli bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak,bu asarni har birimiz astoydil tushunib o'qishimiz kerak.Farzandlarning,yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tiborli bo'lish lozim,ayniqsa, qizlarning ta'lim olishi uchun alohida e'tibor berish kerak.Aks holda, ,, Kecha va Kunduz '' romanining qahramonlaridan biri bo'lgan Zebiga o'xshab tang ahvolda qolish yoki mingboshiga o'xshagan ongsiz insonlarni yetishtirish kabi yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Foydalailgan adabiyotlar:

1.Abdulhamid Cho'lpon ,,Kecha va Kunduz'' romani.,,Ilm-ziyo zakovat''/Toshkent-2019.